

SUN'iy INTELLEKT VOSITALARI ORQALI INGLIZ TILI O'RGANISHNI RIVOJLANTIRISH

Ko'palboyeva Ruxsora Xushnudbek qizi

ISFT instituti (International School of Finance Technology and Science)

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o'rganish jarayonidagi ahamiyati va imkoniyatlari yoritiladi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga faol kirib kelmoqda va o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, sun'iy intellekt asosidagi dastur va platformalar til o'rganishda o'quvchilarga mustaqil ishlash, xatolarni tez aniqlash hamda turli til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Maqolada AI vositalarining ingliz tili ta'limidagi o'rni, ularning afzalliklari hamda ayrim cheklovlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni an'anaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ingliz tili ta'limi, til o'rganish texnologiyalari, AI vositalari, zamonaviy ta'lim metodologiyasi.

Asosiy qism

2019-2022 yillardagi COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga o'tish jarayoni til o'qituvchilari orasida texnologiyalardan foydalanishni misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi. Buning natijasida deyarli 80% pedagoglar an'anaviy darslarga qaytganlaridan keyin ham raqamli texnologiyalardan ya'ni gadjetlardan foydalanishni davom ettirdilar. Sun'iy intellektning til o'qitish jarayonidagi qo'llanilishiga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan alohida til ko'nikmalarini o'rganishga qaratilgan. Konstruktivizm nazariyasi (Piaget, 1972), moslashuvchan o'qitish nazariyasi (Zhang & Dong, 2024) hamda kognitiv yuklama nazariyasi (Sweller, 1988) ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida ko'p darajali meta-tahlil yondashuvidan foydalanadi. Unda sun'iy intellektning turli til ko'nikmalariga (o'qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish va lug'at boyligi) hamda turli kontekstual omillarga (ta'lim darajasi, o'qitish shakli, qo'llaniladigan vosita turi) ta'siri tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. AI asosidagi platformalar o'quvchilarga mustaqil ravishda mashq qilish, bilimlarini tekshirish va xatolarini tez aniqlash imkonini beradi. Masalan, ayrim online platformalar o'quvchilarning javoblarini avtomatik tahlil qilib, ularga darhol fikr-mulohaza bildiradi. Bu esa o'quvchilarga o'z xatolarini tez tushunish va ularni tuzatish imkonini yaratadi. Tadqiqotlarga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari o'quvchilarga tezkor feedback berish orqali o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'zbekistonlik tadqiqotchi Zilola Salisheva o'z tadqiqotida sun'iy intellekt vositalari til o'qitish jarayonida o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini

shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Til o'rganish jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar va virtual suhbat tizimlari o'quvchilarga ingliz tilida muloqot qilishni mashq qilish imkonini beradi. Bunday tizimlar real suhbatga yaqin muhit yaratib, o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari ayrim AI ilovalari talaffuzni tekshirib, o'quvchilarga to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha tavsiyalar ham beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, AI asosidagi adaptive o'qitish tizimlari, virtual repetitorlar va chat-botlarning til ta'limidagi samaradorligini o'rganib, ularning o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan o'quv strategiyalarini shakllantirish va dars jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalari nafaqat bilimni tezroq o'zlashtirish imkonini beradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi. (M.Qodiriy, 2024). Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Eng avvalo, texnologiyaga haddan tashqari tayanish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi jonli muloqot (face to face communication) ning kamayishiga olib kelishi mumkin. Til o'rganish jarayonida esa insoniy muloqot, fikr almashish va o'qituvchining yo'naltirishi juda muhim hisoblanadi. O'zbek tadqiqotchisi Aziza Yormatova ham sun'iy intellekt til o'qitish jarayonida muhim yordamchi vosita bo'lishi mumkinligini, biroq u o'qituvchining o'rnini to'liq bosa olmasligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda AI texnologiyalari ta'limni individuallashtirish, talaffuz va grammatika ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini qayd etilgan bo'lsa-da, o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va insoniy muloqotning kamayishi kabi muammolar ham mavjudligi ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'lim jarayonida, ayniqsa ingliz tilini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. AI asosidagi platformalar o'quvchilarga yozma nutqni tahlil qilish, grammatika va lug'at boyligini oshirish hamda individual ravishda mashq qilish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, interaktiv mashqlar, testlar va turli o'yin elementlari orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Eng muhimi, bu texnologiyalar o'quvchilarga istalgan vaqt va istalgan joyda bilib olish imkonini berib, mustaqil ta'lim ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda muvozanatni saqlash muhimdir. Texnologiyaga haddan tashqari tayanish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi jonli muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Til o'rganish jarayonida esa aynan insoniy muloqot, fikr almashish va o'qituvchining yo'naltirishi katta ahamiyatga ega. Shu sababli, sun'iy intellekt o'qituvchini to'liq almashtiruvchi vosita emas, balki o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi samarali yordamchi vosita sifatida qaralishi lozim. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish hamda ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu

texnologiyalarni ta’lim tizimiga yanada samarali integratsiya qilish orqali o’qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luckin,R(2018).Machine Learning and Human Intelligence. The Future of Education for he 21st Century. <https://discovery.ucl.ac.uk/id/eprint/10178695/>
2. Salisheva, Z. I. (2023). Artificial Intelligence in Language Education. USA Journals.
3. Mahzuna Qodiriy (2024). Role of AI in Personalized Language Learning in Uzbekistan. Tashkent: Worldly Journals.
4. Yormatova, A. V. (2025). Til o’qitishda sun’iy intellektning ijobiy va salbiy jihatlari. Lingua Spectrum jurnali.